

O'quv seminari bo'lib o'tdi

// 11.06.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-quv-seminari-bo-lib-o-tdi>



Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashabbusi bilan "Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va "komplayens-nazorat" tizimini samarali joriy etish" mavzusida o'quv seminari bo'lib o'tdi.

Mazkur xalqaro seminarda davlat idoralari va vazirliklari, mahalliy hokimiyat organlari hamda davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan tashkilotlarning 130 dan ortiq korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas'ul xodimlari ishtirok etishdi.



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli qaroriga muvofiq, 2023-yilgi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi" natijalari bo'yicha "O'zkimyosanoat" AJ 90 ball bilan "yaxshi" sifatida baholangan va 3-o'rinni qayd etgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Zikirov Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ijobiy tajribasini ommalashtirish maqsadida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ishtirokchilarga ma'ruza qildi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar olishdi.



O'quv seminari yakunida Agentlik rahbariyati tomonidan ma'ruzachilarga maxsus sertifikatlar topshirildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

